

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026  
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umiddjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI .....	10
<b>Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna</b>	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА .....	19
<b>Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	28
<b>Габбарова Ильмира Володиевна</b>	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH .....	34
<b>Amirov Shavkat Rahmatullayevich</b>	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ .....	41
<b>Усманова Азиза Баходировна</b>	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH .....	46
<b>Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	55
<b>Alimova Dilafro'z Tohir qizii</b>	



# INVESTITSİYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

**Alimova Dilafro‘z Tohir qizi**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali,  
stajyor o‘qituvchi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada investitsiyalar hajmini oshirishga ta‘sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi hamda ularni samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi chora-tadbirlar ko‘rib chiqiladi. Xususan, investitsiya muhitining shakllanish darajasi, huquqiy va institutsional tizimning rivojlanish holati, shuningdek, moliyaviy resurslar mavjudligi kabi omillar o‘rganilgan.

Shu bilan birga, investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish, investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** investitsiyalar, investitsiya muhiti, investitsiya hajmi, iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy resurslar, institutsional omillar, huquqiy muhit, investitsiya siyosati, davlat qo‘llab-quvvatlashi, investitsiya faolligi.

**Abstract.** This article analyzes the key factors influencing the increase in investment volume and examines measures aimed at enhancing their effective development. In particular, it explores the level of development of the investment environment, the state of legal and institutional frameworks, and the availability of financial resources.

Furthermore, the study provides scientifically grounded recommendations to stimulate investment activity, create favorable conditions for investors, and improve government support mechanisms.

**Keywords:** investments, investment environment, investment volume, economic development, financial resources, institutional factors, legal framework, investment policy, government support, investment activity.

**Аннотация.** В данной статье анализируются ключевые факторы, влияющие на увеличение объема инвестиций, а также рассматриваются меры, направленные на их эффективное развитие. В частности, изучаются уровень сформированности инвестиционной среды, состояние правовой и институциональной системы, а также доступность финансовых ресурсов.

Кроме того, разработаны научно обоснованные рекомендации по стимулированию инвестиционной активности, созданию благоприятных условий для инвесторов и совершенствованию механизмов государственной поддержки.

**Ключевые слова:** инвестиции, инвестиционная среда, объем инвестиций, экономическое развитие, финансовые ресурсы, институциональные факторы, правовая среда, инвестиционная политика, государственная поддержка, инвестиционная активность.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va raqobat muhitining kuchayishi sharoitida investitsiyalar iqtisodiy o‘shirishning muhim drayverlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Har qanday mamlakatning barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, innovatsion faoliyatni jadallashtirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish bevosita investitsiya jarayonlarining faolligiga bog‘liq. Shu jihatdan investitsiyalar hajmini oshirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo‘lib, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

So‘nggi yillarda investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, investitsiyalar oqimini yanada kengaytirish jarayonida ayrim tizimli omillarni takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Jumladan, huquqiy-me‘yoriy bazani yanada rivojlantirish, institutsional mexanizmlar samaradorligini oshirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda hududlar o‘rtasida investitsiya jozibadorligini muvozanatlash ushbu yo‘nalishda ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Mazkur holat investitsiya faoliyatini rag‘batlantirishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish, mavjud imkoniyatlarni chuqur tahlil qilish va ularni yanada samarali yo‘naltirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni belgilash zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, investitsiya muhitini institutsional jihatdan mustahkamlash,



huquqiy kafolatlarni rivojlantirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash muhim yo'nalishlar sifatida ajralib turadi.

Ushbu maqolaning maqsadi investitsiyalar hajmini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, ularning iqtisodiy mohiyatini tahlil qilish hamda investitsiya jarayonlarini yanada faollashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalar hajmini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda hududiy investitsiyaviy salohiyatni rivojlantirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lib, ularning hajmi va samaradorligi mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan J. Dunning investitsiyalarni jalb etishda institutsional muhit, huquqiy barqarorlik hamda iqtisodiy ochiqlik muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va investitsiya muhitining jozibadorligiga bevosita bog'liq. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar, xususan Jahon banki va OECD hisobotlarida investitsiya muhitini yaxshilash uchun ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, mulk huquqini himoya qilish va infratuzilmani rivojlantirish zarurligi qayd etilgan.

UNCTAD tomonidan e'lon qilingan "World Investment Report"larda esa global investitsiya oqimlari dinamikasi, ularning tarmoqlar kesimidagi taqsimlanishi hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Mazkur hisobotlarda infratuzilma rivoji, moliyaviy resurslarning mavjudligi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosati investitsion jozibadorlikni belgilovchi asosiy omillar sifatida e'tirof etiladi.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham investitsiyalar hajmini oshirish muammolari keng yoritilgan. Jumladan, Alimova D.Z. o'z tadqiqotida investitsiyalarning kirib kelishiga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida institutsional cheklovlar, infratuzilmaning yetarli rivojlanmaganligi hamda hududiy nomutanosibliklarni ko'rsatadi. Shuningdek, u investitsiya muhitini yaxshilash uchun hududiy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mavzuning ilmiy asoslangan holda yoritilishini ta'minlash maqsadida turli ilmiy usullardan kompleks foydalanildi. Xususan, ilmiy abstraksiya va mantiqiy tafakkur yordamida investitsiya jarayonlarining nazariy jihatlari ochib berildi.

Umumlashtirish, analiz va sintez usullari orqali mavjud ilmiy qarashlar tizimlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Tizimli tahlil usuli investitsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tarzda o'rganish imkonini berdi.

Shuningdek, statistik va ekonometrik tahlil usullari yordamida investitsiya hajmining o'zgarish tendensiyalari baholandi hamda ular asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali esa turli mamlakatlar tajribasi o'rganilib, ularning samarali jihatlari aniqlanib, milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari asoslab berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda investorlarni faol jalb qilish hamda investitsiya muhitini yanada qulaylashtirish maqsadida keng qamrovli imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda ayrim hududiy va tarmoq xususiyatlariga bog'liq jihatlarni takomillashtirish zarurati mavjud.

Birinchiidan, ayrim hududlarda iqtisodiy ixtisoslashuvning yuqori darajada shakllanganligi investitsiyalarni diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Masalan, Sirdaryo viloyati hududi asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, sug'oriladigan yerlarda beda, no'xat, mosh, kunjut, tariq, loviya, kungaboqar kabi ekinlar yetishtiriladi. Shuningdek, Guliston va Xovos tumanlari sabzavot va poliz ekinlari yetishtirishga moslashgan hududlar hisoblanadi. Viloyatda yetishtiriladigan qovun, tarvuz va piyoz mahsulotlari boshqa mintaqalarga ham yetkazib berilmoqda<sup>1</sup>. Bu esa hududning agrar salohiyati yuqori

1 Gulizahro, T., Nigora, S., Dilafuz, A., & Azamat, Z. (2022). QISHLOQ XO'JALIGIDA AGRASANOAT VA MUSTAQIL SANOAT



ekanligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini hududlar kesimida yanada muvozanatli rivojlantirish hamda mavjud resurslardan samarali foydalanish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, foydalanilmayotgan yoki past samarali qishloq xo'jaligi yerlarini iqtisodiy muomalaga jalb etish hududiy rivojlanish strategiyalarining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Sirdaryo viloyati respublikaning sanoatlashuv darajasi nisbatan past bo'lgan hududlaridan biri sifatida tavsiflanadi. Hududiy iqtisodiy salohiyatdan yanada samarali foydalanish, yirik sanoat markazlarini rivojlantirish hamda yangi ishlab chiqarish maydonlari uchun zarur zaxiralarni kengaytirish istiqbollari mavjud. Ushbu yo'nalishlarni izchil rivojlantirish investitsion faolligni oshirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, viloyatda foydalanilmayotgan yer resurslari negizida kichik sanoat zonalarini tashkil etish hududiy investitsiyaviy salohiyatni oshirishning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Sirdaryo viloyatining ayrim tumanlarida agrotexnik me'yorlar asosida yetarli darajada foydalanilmayotgan, suv ta'minoti past yoki rentabelligi nisbatan past bo'lgan yer maydonlari mavjud. Ayrim hududlarda bunday yerlar 1500–2000 gektargacha maydonni tashkil etib, ularning bir qismi iqtisodiy aylanmaga to'liq jalb etilmagan. Shu bilan birga, ushbu yerlarning muhim qismi transport kommunikatsiyalari va muhandislik infratuzilmasiga yaqin joylashgani sababli sanoat obyektlarini joylashtirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki<sup>2</sup>, viloyat hududida tashkil etilgan kichik sanoat zonalarini hududiy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, kichik sanoat zonalarida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish jarayoni jadallashib, investitsiya hajmining 2–2,5 baravar oshishiga erishilgan. Shuningdek, Xitoy, Koreya va Turkiya kabi davlatlar investorlarining qiziqishi ortib, yangi korxonalar tashkil etilishi natijasida hududlarda bandlik darajasi oshgan hamda soliq bazasi kengaygan.

Natijada hududiy infratuzilma — yo'l, energiya, suv ta'minoti va telekommunikatsiya tizimlari bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinib, iqtisodiy rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratilmoqda.

Shu bilan birga, hududiy investitsiyaviy salohiyatni oshirishda mavjud yer resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi yashash hududlariga yaqin joylashgan, biroq iqtisodiy faoliyatga to'liq jalb etilmagan yer maydonlarini ishlab chiqarish jarayonlariga yo'naltirish hududiy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi<sup>3</sup>.

Jumladan, Sayxunobod tumani geografik jihatdan vodiy va voha hududlarini bog'lovchi A–373 magistral yo'li bo'yida joylashgan bo'lib, ushbu transport-logistika imkoniyatlari hududda sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Shu bilan birga, hududdagi ayrim yer resurslari hali iqtisodiy faoliyatga to'liq jalb etilmagan bo'lib, ularni samarali foydalanishga yo'naltirish istiqbollari mavjud.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Sayxunobod tumani "Farovon" mahallasida 20 gektar foydalanilmayotgan yer maydonlari aniqlangan bo'lib, mazkur hududni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish investitsiyaviy salohiyatni oshirishning muhim imkoniyatlaridan biri hisoblanadi. Shu asosda, ushbu yer maydonlari negizida kichik sanoat zonalarini tashkil etish maqsadga muvofiq deb baholanadi.

Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish quyidagi ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi:

Birinchidan, foydalanilmayotgan yer maydonlarini sanoat faoliyatiga jalb etish yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi. Iqtisodiy aylanmadan chetda qolgan 20 gektar yer maydonining ishlab chiqarish obyektlari joylashgan hududga aylantirilishi natijasida iqtisodiy qiymat yaratish jarayoni kengayadi. Bu esa yer resurslarining iqtisodiy qaytimini oshirib, ulardan foydalanish samaradorligini o'rtacha 30 foizgacha yaxshilash imkonini beradi.

Ikkinchidan, kichik sanoat zonalarini tashkil etish hududga yangi investitsiya loyihalarini jalb qilish uchun qulay sharoit yaratadi. Muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini shakllantirish orqali kichik va o'rta biznes subyektlari uchun zamonaviy ishlab chiqarish maydonlari tashkil etiladi. Natijada yangi sanoat korxonalari barpo etilib, ishlab chiqarish hajmi ortadi hamda yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Uchinchidan, kichik sanoat zonalarida faoliyat yurituvchi korxonalar tomonidan to'lanadigan yer solig'i, mol-mulk solig'i, foyda solig'i hamda boshqa majburiy to'lovlar hududning soliq bazasini kengaytiradi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, mazkur hududda kichik sanoat zonasi tashkil etilishi natijasida mahalliy byudjet daromadlarini o'rtacha 22 foizga oshirish imkoniyati mavjud.

Investitsiyalar hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan yana biri — hududlarda infratuzilmaning

TARMOQLARINING TUZILMASI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADDIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 2(12), 203-206.

2 Alimova, D. (2025, November). FOREIGN DIRECT INVESTMENT (FDI) AND ITS IMPACT ON MACROECONOMIC STABILITY. In *International Conference on Business & Management* (Vol. 1, No. 2, pp. 7-9).

3 Alimova, D. Z. Investitsiyalarning Kirib Kelishiga To'liq Qiluvchi Muammolarni Bartaraf Etish Yo'llari. *Green Economy and Development*, 3(11), 667570.

rivojlanish darajasidir. Hududiy investitsion faollikni oshirishda sanoat zonalarining raqobatbardoshligi va investorlar uchun jozibadorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Sanoat zonalarining samarali faoliyat yuritishi uchun ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlaydigan muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, logistika infratuzilmasi, energiya ta'minoti, ichki transport yo'llari hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarining rivojlangan bo'lishi zarur.

Aynan infratuzilma darajasining yetarli emasligi ayrim hududlarda iqtisodiy faollikni muvozanatlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois, sanoat zonalarini investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun qulay bo'lgan zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi. Bu borada davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar, maxsus jamg'armalar hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur yondashuv sanoat zonalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan boshlang'ich infratuzilma xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Chunki infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan sharoitda investorlar elektr tarmoqlari, yo'l, suv va gaz ta'minoti kabi tizimlarni mustaqil ravishda barpo etishga majbur bo'ladi. Bu esa loyiha qiymatini oshiradi, investitsiya qaytish muddatini uzaytiradi hamda umumiy iqtisodiy samaradorlikka qo'shimcha yuk keltiradi.

Davlat tomonidan infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar amalga oshirilishi natijasida investorlar uchun qulay va barqaror biznes muhiti shakllanadi. Natijada ishlab chiqarish obyektlarini qurish va ishga tushirish muddati qisqaradi, loyiha xarajatlarida infratuzilma ulushi kamayadi, hududiy sanoat zonalariga investorlar qiziqishi ortadi hamda ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish sur'atlari jadallashadi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yakunlariga kelib umumiy sanoat zonalarini maydonlarining atigi 55–60 foizi to'liq infratuzilma bilan ta'minlangan. Jizzax, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlarining ayrim hududlarida aynan shu omil sababli investitsiya loyihalarini amalga oshirish muddatlari cho'zilgan. Bu holat hududiy infratuzilmani yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Sirdaryo viloyati tumanlarining 2019–2023-yillardagi gaz va kanalizatsiya tizimlari bilan ta'minlanganlik darajasi ham hududiy infratuzilmani takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini tasdiqlaydi. Jumladan, Boyovut (50,1%), Sayxunobod (31,8%), Oqoltin (42,7%) tumanlarida gaz tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari mavjud. Shuningdek, kanalizatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish ham hududiy investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi<sup>4</sup>.

Bundan tashqari, hududning toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi (2023-yil yakunlariga ko'ra 85,7%), kommunikatsiya tizimlarining rivojlanganligi, ijtimoiy xizmatlar sifati, ta'lim muassasalarining zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlik darajasi, aholining o'rtacha daromadlari va savodxonlik darajasi kabi omillar ham investitsiyaviy jozibadorlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, hududlarda barpo etilgan sanoat zonalarini investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirish uchun kamida 75 foiz darajada zarur muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu yo'nalishda moliyaviy resurslarni jalb qilish hamda zarur hollarda alohida infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali investitsiya loyihalarini ishga tushirish samaradorligini o'rtacha 35 foizga oshirish imkoniyati mavjud.

Shu bilan birga, investitsiyalar hajmini oshirish nafaqat mavjud imkoniyatlarni kengaytirish, balki amaldagi imtiyozlar va preferensiyalarni yanada takomillashtirish orqali ham ta'minlanadi. Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, investorlar uchun qulay fiskal mexanizmlarni joriy etish investitsiya muhitini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Xususan, Germaniya, Fransiya, Xitoy va Buyuk Britaniya tajribasini inobatga olgan holda, ijara haqi va yer solig'ini yagona to'lov tizimi doirasida birlashtirish investitsiya muhitini yanada soddalashtirishga xizmat qilishi mumkin. Ushbu yondashuv biznes subyektlari uchun ma'muriy yukni kamaytiradi, davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni optimallashtiradi hamda investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, bunday tizimni joriy etishda tegishli huquqiy normalar va ijro mexanizmlarini puxta ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Investitsiyalar hajmini oshirishda samarali qo'llanishi mumkin bo'lgan muhim moliyaviy mexanizmlardan biri — subsidiyalarni tizimidir. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarning asosiy qismi energetika va qurilish sohasiga yo'naltirilgan. Jumladan, 2023-yil yakunlariga ko'ra elektr va gaz ta'minoti bilan bog'liq loyihalarga jami investitsiyalar hajmining 51,2 foizi, qayta ishlash sanoatiga esa 31,9 foizi to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, xizmatlar sohasi, xususan turizm yo'nalishi yuqori iqtisodiy salohiyatga ega bo'lib, uni yanada rivojlantirish uchun investitsiyalarni kengaytirish zarurati mavjud. Ichki va tashqi turizmning rivojlanishi hududiy iqtisodiyotning o'sishiga, aholi daromadlarining oshishiga hamda turmush darajasining yaxshilanishiga

4 Sirdaryo viloyatining statistik axborotnomasi. 2019-yil Yanvar-Dekabr. Guliston – 2020y. 46-bet



ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tashrif buyuruvchilarni turar joy, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish infratuzilmasi bilan ta'minlash esa ushbu sohada investitsiya faolligini oshirishni talab etadi.

Xizmatlar sohasiga investitsiyalarni jalb etish orqali xorijiy valyuta tushumlari ortadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi hamda aholi bandligi darajasi oshadi. Natijada iqtisodiy faollik kengayib, hududiy rivojlanish barqaror tus oladi.

Xizmatlar sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlaridan biri — investitsiya hajmiga proporsional subsidiyalar ajratish tizimini joriy etishdir. Bunda davlat tomonidan ajratiladigan subsidiya miqdori investitsiya loyihasining umumiy qiymatiga bog'liq bo'ladi. Mazkur mexanizm investorlarning moliyaviy yukini kamaytirib, xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish va ularning faoliyatini kengaytirishga qo'shimcha rag'bat yaratadi<sup>5</sup>.

Iqtisodiy nazariya va xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan beriladigan subsidiya va moliyaviy rag'batlar investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Investitsiya xarajatlarining bir qismini qoplash orqali loyiha rentabelligi ortadi, kapital qo'yilmalarning qaytish muddati qisqaradi hamda investorlarning xizmatlar sohasiga bo'lgan qiziqishi kuchayadi. Natijada investitsiyalar hajmi ortib, xizmatlar bozorida yangi subyektlar paydo bo'ladi.

Amaliy hisob-kitoblarga ko'ra, investitsiya hajmiga proporsional subsidiyalar ajratish mexanizmini qo'llash xizmatlar sohasidagi investitsiya loyihalarining qaytuv darajasini o'rtacha 15 foizga oshirish imkonini beradi. Bu natija investitsiya xarajatlarining kamayishi, xizmat ko'rsatish quvvatlarining tezroq ishga tushirilishi hamda bozor talabining kengayishi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, xizmatlar sektorining rivojlanishi natijasida yangi biznes subyektlari tashkil etilib, ular tomonidan to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i, aylanma soliqlar va ijtimoiy to'lovlar hajmi ortadi. Bu esa o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiy faollikning kengayishi orqali soliq tushumlarini taxminan 20 foizga oshirish imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududlarda barpo etilgan sanoat zonalarini investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirish uchun kamida 75 foiz darajada infratuzilma bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqsadda zarur moliyaviy resurslarni ajratish hamda alohida infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali investitsiya loyihalarini ishga tushirish samaradorligini o'rtacha 35 foizga oshirish imkoniyati mavjud.

Hududiy investitsiyaviy salohiyatni oshirish nuqtai nazaridan, Sayxunobod tumani "Farovon" mahallasidagi 20 gektar foydalanilmayotgan yer maydonlari negizida kichik sanoat zonalarini tashkil etish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv yer resurslaridan foydalanish samaradorligini o'rtacha 30 foizga oshirish, shuningdek, mahalliy byudjet daromadlarini taxminan 22 foizga ko'paytirish imkonini beradi.

Xizmatlar sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadida investitsiya hajmiga proporsional subsidiyalar ajratish tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu mexanizm investitsiya loyihalarining qaytuv darajasini o'rtacha 15 foizga oshirish, shuningdek, o'rta muddatli istiqbolda soliq tushumlarini 20 foizga ko'paytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, hududlar iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish amaliyotini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xususan, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda yer uchastkalaridan foydalanish bilan bog'liq ijara haqi va yer solig'i to'lovlarini muvofiqlashtirgan holda yagona to'lov tizimini joriy etish investitsiya muhitini soddalashtirish va investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gulizahro, T., Nigora, S., Dilafro'z, A., & Azamat, Z. (2022). *Qishloq xo'jaligida agrasanoat va mustaqil sanoat tarmoqlarining tuzilmasi va uni belgilovchi omillar*. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(12), 203–206.
2. Alimova, D. (2025, November). *Foreign Direct Investment (FDI) and Its Impact on Macroeconomic Stability*. In: International Conference on Business & Management, Vol. 1, No. 2, pp. 7–9.
3. Alimova, D. Z. *Investitsiyalarning kirib kelishiga to'sqinlik qiluvchi muammolarni bartaraf etish yo'llari*. Green Economy and Development, 3(11), 667570.
4. *Sirdaryo viloyatining statistik axborotnomasi*. (2019-yil yanvar–dekabr). Guliston: 2020. 46-bet.
5. Margeirsson, O. (2015). *Foreign direct investment: A focused literature review*. Binzagr Institute for Sustainable Prosperity, 1.



- Prosperity, 1.
6. World Bank. (2020). *Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies*. Washington, DC: World Bank Group.
  7. OECD. (2015). *Policy Framework for Investment 2015 Edition*. Paris: OECD Publishing.
  8. UNCTAD. (2023). *World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All*. United Nations, New York and Geneva.
  9. IMF. (2021). *Investment and Growth in Emerging Markets and Developing Economies*. International Monetary Fund, Washington, DC.
  10. Dunning, J. H. (1993). *Multinational Enterprises and the Global Economy*. Addison-Wesley Publishing Company.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)